



O‘ZBEK VA INGLIZ LATIFALARIDA BOSH QAHRAMON OBRAZINING O‘ZIGA XOS TURLARI

Mardonov Maxmud Sobir o‘g‘li,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207207>

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz latifalarida bosh qahramon obrazining o‘ziga xos turlari qalamga olingan. Ta’kidlanishicha, o‘zbek va Amerika xalqlari latifalarini tadqiq etish, ularni tipologik o‘rganish ikki xalq madaniyati tarixi, ularning badiiy tafakkuri tadrijiy takomili, badiiy-estetik qarashlari borasida o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali bashariyat madaniy ibtidosi borasida aniq xulosalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘z va iboralar: latifa, bosh qahramon, obraz, o‘zbek va Amerika xalqlari latifalari, ikki xalq madaniyati tarixi, badiiy tafakkur, badiiy-estetik qarashlar.

Kulgi inson kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladigan ma’naviy vositadir. Jahon folklorshunosligida kulgi bilan bog‘liq folklor janrlarini tadqiq etish, ularning o‘ziga xosliklari, janr tabiati, badiiy xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish katta. Kulgi bilan aloqador folklor janrlarini tadqiq etish ajdodlarimizning badiiy-estetik qarashlari, poetik tafakkurning tadrijiy takomilini aniqlashga xizmat qilish bilan bir qatorda xalq ma’naviyati va madaniyati tarixini oydinlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda o‘zbek latifalarida bosh qahramon Nasriddin afandi, Kal, bir kishi kabi obrazlar asosida xalqning zukko, hozirjavob, bilimdon, yengilmas, va ma’naviy yetuk, dono farzandlari obrazi tipiklashtiriladi. “O‘zbek xalqining sevimli qahramoni Xo‘ja Nasriddin afandining fazilatlarini ko‘p. Bu qahramonning o‘ta bilag‘onligi, topqirligi, so‘zamolligi, epchilligi, sofdilligi, odilligi, dadilligi, mardligi, tantiligi tillarda doston! Janobi Afandi nafaqat o‘zbek, usmonli turk, ozarbayjon, qozoq, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird, uyg‘ur va boshqa turkiy xalqlar, balki fors, tojik, yunon, arab, bolgar, serb va boshqa turkiy bo‘lmagan xalqlarda ham yashovchanu kurashchan qahramon hisoblanadi”[1].

O‘zbek latifalarining tadqiqotchisi F.Yo‘ldosheva va K.Imomovlarning fikricha, Nasriddin afandi to‘qima, tipiklashgan obraz deb hisoblaydi [2]. Turk tadqiqotchisi Bursali Tohir[3], sharqshunos N.Osmanov[4], ozorbayjon olimi M.Sultonov[5]lar turkiy xalqlar latifalarida keng ommalashgan Xoja Nasriddin afandi obrazini tarixiy shaxs sifatida dalillashga harakat qiladilar[3]. Amerikaning Texas universiteti professori Salvator Attardo[6], rus folklorshunosi Yu.I.Yudinlar[7] tomonidan olib



borilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, latifalarning bosh qahramonlari aksariyat hollarda tarixiy shaxslar bo‘ladi. Ular asosan, siyosiy arboblardan, taniqli tarixiy shaxslar haqidagi latifalarni nazarda tutadi. G‘arb va turkiy xalqlar folklorshunoslari latifalarning bosh qahramonlarini tarixda yashagan shaxs sifatida talqin qiladilar. Ammo rus va o‘zbek olimlari latifa janridagi asarlarning qahramonini to‘qima obraz sifatida tushunadilar va shunday targ‘ib qilishadi.

Bizningcha, o‘zbek latifalarida olimlarimiz ta’kidlaganlaridek, janrning bosh qahramoni xalq tomonidan tipiklashtirilgan obraz, biroq mazkur obrazning ham tarixiy asosi qaysidir tarixiy shaxs faoliyatiga borib taqaladi. Amerikaliklar folklorida keng tarqalgan obrazlardan biri bu Sherlok Xolms obrazidir. Butun amerika yozma nasrida ham mashhur bo‘lgan mazkur obraz iqtidorli izquvar, dono va zukko kishi sifatida gavdalanadi:

Sherlock Holmes and his friend Watson were on a camping and hiking trip.

They had gone to bed and were lying there looking up at the sky. Holmes said, “Watson, look up. What do you see?”

“Well, I see thousands of stars”.

“And what does that mean to you?”

“Well, I guess it means we will have another nice day tomorrow. What does it mean to you, Holmes?”

“To me, it means someone has stolen our tent”[8].

Tarjimasi:

Sherlok Xolms va uning do‘sti Votson piyoda sayohatga chiqishdi.

Ular joy solishib, osmonga qarab yotishardi. Xolms dedi: “Votson, yuqoriga qarang. Nimani ko‘ryapsiz?”

– Xo‘sh, minglab yulduzlarni ko‘rayapman.

– “bu siz uchun nimani anglatadi?”

– Xo‘sh, menimcha, bu ertaga yana bir yaxshi kun bo‘ladi, degani. Sizgachi bu nimani anglatadi, Xolms?

– Men uchun bu kimdir bizning chodirimizni o‘g‘irlab ketganini anglatadi.

Mazkur latifa mavzusi jihatidan maishiy va zamonaviy muammolarga bag‘ishlangan. Bunda bosh qahramon Sherlok Xolms. U o‘z sherigiga nisbatan o‘ta dono. Odatda Amerika xalqlari og‘zaki ijodida kulgi kundalik maishiy hayotdagi muammolarni ob‘yekt qilib olish evaziga quriladi. Epik syujetda ishtirok etayotgan ikki personajning biri soddaroq, ikkinchisi mug‘ombirroq yoki donoroq shaxs sifatida talqin qilinadi:



“On a rural road a state trooper pulled this farmer over and said: "Sir, do you realize your wife fell out of the car several miles back?"

To which the farmer replied, "Thank God, I thought I had gone deaf!"[1]

Tarjimasi:

Qishloq yo‘lida bir yo‘l noziri mashinada ketayotgan bir fermerni to‘xtatib: – Janob, xotiningiz bir necha mil orqada mashinadan yiqilib, qolib ketganini sezdingizmi?

Fermer shunday javob berdi: – Xudoga shukure, men kar bo‘lib qoldimmi deb o‘ylayotgandim!

Mazkur latifada esa, asosiy qahramon – fermer. U xotinidan bezor bo‘lgan erkaklarning tipik vakili sifatida obrazlashadi. Xotining mashinadan tushib qolgan payti baqirganini eshitmagan fermer uchun ayolining yiqilganligi, balki biror yeri shikastlangan bo‘lish ehtimoli ahamiyatga ega emas. U xotining ko‘p gapirishi, boshini qotirishni eshitmaganidan o‘zini kar bo‘lib qolganlikda gumon qilganidan qo‘rqadi. Shuning uchun “Xotining tushib qolganini bilasizmi?”-degan savolni eshitib xursand bo‘lib ketadi. Odatda kishi o‘z turmush o‘rtog‘ini bexosdan mashinadan tushib qolganini eshitganda tahlikaga tushishi, uning sog‘-omonligi bilan qiziqishi lozim. Fermer xarakterida bunday qayg‘urishni ko‘rmaymiz. Bosh qahramon fojeaga tenglashuvchi holatda ham yotig‘liq bilan komik holatni yaratadi.

Ko‘pincha latifalarda bosh qahramon yordamchi personajning qaysidir xususiyati hisobiga o‘z donoligini namoyon qiladi va kulgi yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi:

Old farmer Johnson was dying. The family was standing around his bed. With a low voice he said to his wife: "When I'm dead I want you to marry farmer Jones."

“Wife: "No, I can't marry anyone after you."

Johnson: "But I want you to."

Wife: "But why?"

Johnson: "Jones once cheated me in a horse deal!"[8].

Tarjimasi:

“Keksa dehqon Jonson o‘layotgan edi. Oilasi uning to‘shagi atrofida turishardi. U past ovozda xotinigaga: – Men o‘lganimdan keyin dehqon Jonsga turmushga chiqishingni xohlayman, - dedi.

Xotin: – Yo‘q, men sizdan keyin hech kimga turmushga chiqa olmayman".

Jonson: – Lekin men buni juda ham xohlayman.

Xotin: – Nima uchun?



Jonson: – Chunki, Jons bir marta meni ot savdosida aldagan edi!-deb javob beribdi.

Mazkur latifada bosh qahramon o‘z maqsadiga erishishda yordamchi personaj bo‘lgan xotinidan foydalanishi, xotining o‘ta shafqatsiz, suhbatlashgan odamni baloga yo‘liqtirish xususiyatidagi inson ekanligi qahramonlar dialogi mohiyatiga singdirilganligi, uning komik holatni yaratishiga sabab bo‘lgan. Qolaversa, Jons bu odatiy shaxs obrazi. Keksa Jons kichik dehqon Jonsning badkirdorligi uchun o‘ch olishning o‘ziga xos yo‘lini topgan. U dehqon Jonsni o‘zining o‘limidan so‘ng o‘z bevasiga uylantirsa, xotini kekxa Jonsning “boshiga yetgani” kabi dehqon Jonsni ham “boshiga yetadi”.

Mazkur latifada Jonsning xotini obrazi yovuz xotinlarning tipik obrazi sifatida talqin qilinadi. Latifa syujetida mantiqiy kartinalarni qarshilantirish orqali kulgi qo‘zg‘ashga erishiladi. Bu uslub qahramonning o‘limi oldidan vasiyat qilishi tasvirida namoyon bo‘ladi. Interyerga e‘tibor qarataylik, kekxa Jons jon taslim qilish arafasida, oila a‘zolari ko‘z yoshi to‘kib turishgan paytda. o‘layotgan kishining boshqa bir kishidan o‘ch olish yo‘lini o‘ylab xotiniga unga turmushga chiqishini so‘rashi motivi tinglovchida da‘atan kulgi qo‘zg‘ashga sabab bo‘lgan. Buni biz quyidagi voronka ko‘rinishida tasavvur qilamiz. Voronka – latifa matni – epik syujet, unda ishtirok etuvchi personajlar va ularda o‘zining zukkologi bilan ajralib turuvchisi bosh qahramonning javobi natijasida kulgi hosil bo‘ladi:



Kekxa Jons latifa epik syujetida dastlab shunchaki o‘limini kutib yotgan personaj qiyofasida gavdalanadi. Ammo uning o‘z xotiniga vasiyat qilishi va xotini bilan suhbatidagi so‘ngi javobidan keyin kekxa Jonsning personajdan qahramon darajasiga o‘tib chiqishi jarayoni kuzatiladi. Latifada personajlar nutqi so‘ngidagi oxirgi gap latifaning qahramonini belgilasa, ikkinchidan ayni shu oxirgi gap latifaning boshqa og‘zaki epik matnlardan farqini ko‘rsatuvchi poetik tabiatini belgilashga ham xizmat qilgan.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Xulosa, o‘zbek va Amerika xalqlari latifalarini tadqiq etish, ularni tipologik o‘rganish ikki xalq madaniyati tarixi, ularning badiiy tafakkuri tadrijiy takomili, badiiy-estetik qarashlari borasida o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali bashariyat madaniy ibtidosi borasida aniq xulosalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umaraliyeva D.T. O‘zbek xalq latifalari va ularning ingliz tiliga tarjimalari//Science and innovation science and innovation. International scientific journal volume 1. ISSUE 6. – P. 974-976.
2. Йўлдошева Ф. Афанди латифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – 1967.– 5-сон. – Б. 48-52.
3. Nasreddin Hoca Türbesi Hakkında Bilgi – Dünyanın Ortası – Akşehir / Konya// <https://www.gezikesiftatil.com>;
4. Османов Н. Перседские анекдоты. – Москва, Изд-во вост. лит., 1963.– 184 с;
5. Молла Насриддин. Составитель Мамед Тахмасиб.– Баку, Издательство Академии Наук Азербайджанской ССР.1969.– С. 13.
6. Humorous Texts: A semantic and pragmatic analysis. Berlin: Mouton De Gruyter. 2001. 238 p
7. Юдин Ю.И. Русская народная бытовая сказка. Дисс. докт. филол. наук. – Курск, 1978.– С. 26. .
8. Шереметьева А. Americans laugh at... – Москва, Изд:Лицей, 2005.